

## ERKIN VOHIDOVNING SHE'RLARIDA METAFORA VA O'XSHATISHLAR

Burhonova Malika Shodmon qizi  
Sharof Rashidov nomidagi SamDU  
Filologiyafakulteti lingvistika(o'zbek tili)  
yo'nalishi II kurs magistranti

### ANNOTATSIYA

Quyidagi maqolada tilshunoslikda metafora va o'xhatishlarning ta'rifiga, turlariga qisqacha to'xtalib o'tilgan. Erkin Vohidovning ayrim she'rlarida qo'llangan metafora va o'xhatishlarning o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan va namunalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Metafora, metafora turlari, o'xhatish, erkin o'xhatishlar, turg'un o'xhatishlar, Erkin Vohidov she'rlari.

Metafora tushunchasi o'zbek tilshunosligida ham adabiyotshunoslida ham ilmiy izlanuvchilarni qiziqtirgan mavzu bo'lib kelmoqda. Metafora predmetlar orasidagi umumiy o'xhashlikka asoslangan ma'no ko'chish hodisasiidir. Tilshunoslar va adabiyotshunoslarning metaforani o'rganishdan maqsadi bir, so'zning ko'p ma'noliligi va undagi stilistik imkoniyatlarni ochib berishdir. Tilshunos olimlardan M.Mirtojiyev, O.Karimov, D.Xudoyberanova, Sh.Rahmatullayev va boshqa bir qator olimlar ham o'z ilmiy ishlarida metafora tushunchasiga atroflicha to'xtalib o'tgan.

Metaforaga til hodisasi sifatida qaraydigan bo'lsak ham, lekin badiiy adabiyotda obrazli tafakkur hosilasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu xususiyatini insonlarga estetik zavq beradigan she'riy nutqdagina to'laligicha namoyon qiladi. Sho'ir o'z ijod namunalarida metaforadan foydalangan holda narsa-hodisalarning tashqi o'xhashligini emas, ichki o'xhashlikka tayangan holda obrazlar yaratadi. Aynan bu jihat she'riyat ixlosmandlarini o'ziga jalb qiladi va inson his-tuyg'ularini teranroq anglashga, falsafiy fikrlashga chorlaydi.

Metafora matn tarkibida so'z yoki so'z birikmasi shaklida yuzaga chiqadi. Badiiy matnlarda metafora va o'xhatishlardan qanday shaklda, qay holatda foydalanish har bir ijodkorning o'ziga xos uslubini belgilaydi. Sho'irning badiiy tafakkuri uning dunyoqarashlarini namoyon qiluvchi vositadir. Sho'ir Erkin Vohidov ham o'zining ijod namunalarida metafora va o'xhatishlardan unumli foydalanib, o'zbek she'riyatida o'ziga xos yo'nalishni namoyon qilgan ijodkordir. Uning quyidagi keltirilgan she'rlarida metafora va o'xhatishlarning o'ziga xos jihatlarini ko'rib o'tamiz.

### Tun bilan yig‘labdi bulbul...

Tun bilan yig‘labdi bulbul  
G‘uncha hajri dog‘ida.  
Ko‘z yoshi shabnam bo‘lib  
Qolmish uning yaprog‘ida.  
Ko‘z yumar bo‘lsam, ko‘zim —  
Oldida paydo gul yuzim,  
G‘uncha ko‘z ochmog‘i bor  
Bulbul ko‘zin yummog‘ida.<sup>1</sup>

Jonli va jonsiz predmetga inson holati va faoliyatining ko‘chirilishi metafora hosilasi bo‘lganidek, shoir Erkin Vohidovning “Tun bilan yig‘labdi bulbul...” nomli she’ridan keltirilgan parchasida “yig‘labdi bulbul”, “g‘uncha hajri”, “g‘uncha ko‘z ochishi” kabi leksemalari orqali metaforaning g‘oyat go‘zal va o‘ziga xos namunalarini ko‘rishimiz mumkin.

### O‘zbekistonim

Zamin dardicha bor bir ayol dardi,  
Oyning dog‘i balki uning dog‘idan.  
Faryod olov bo‘lsa olam yonardi  
Sharqlik juvonlarning chekkan ohidan.  
Zebuniso o‘tdi tanho va mahzun  
Boshida o‘t bo‘lib malika toji.  
Tun bo‘lib yoyilar Qo‘qonda har kun  
Nodirabeginning qirqilgan sochi.  
Ayol!  
To‘rt devorda ko‘milding g‘amga,  
G‘azallarda faqat jonona bo‘lib.  
Barnodek, Anbardek dili so‘zonim —  
O‘zbekistonim.<sup>2</sup>

Yo‘qorida keltirilgan to‘rtlikda tasvirlangan “zamin dardi”, “faryod olovi”, “qirqilgan sochning tun bo‘lib yoyilishi” o‘xshatishning o‘ziga xos shakli hisoblanadi va Erkin Vohidov she’riyatida erkin o‘xshatishga misol bo‘la oladi. Bu to‘rtlikda “g‘amga ko‘milmoq” kabi metaforaning qo‘llanishi ekspressivlikni oshirgan.

O‘xshatishlar haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, bu dunyonи tushunish, borliqni anglashning eng qadimiylari va samarali usullaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. O‘xshatishlar har bir xalq tarixidagi dastlabki tafakkur tarzi va tasavvurlarini namoyon

<sup>1</sup> Erkin Vohidov, “O‘zbegin”. “Yangi asr avlod”, 2019, 49-b.

<sup>2</sup> Erkin Vohidov, “O‘zbegin”. “Yangi asr avlod”, 2019. 6-b.

qiladi. Aynan muayyan tildagi o‘xshatishlarda ma’lum bir davrda yashagan ajdodlarimizning o‘y-xayollari, ichki kechinmalari, dunyonи teranroq anglashga qaratilgan tasavvurlari mujassamlashgan bo‘ladi. Turkiy tillar tarixida o‘xshatishlarning dastlabki namunalari Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” kabi asarlarda uchratishimiz mumkin. Bu asarlarda uchraydigan o‘xshatishlarda turkiy xalqlarning milliy madaniyatidan ham qisqacha xabardor bo‘lish mumkin. Bunda insonlarni sifatlashda tulkidek ayyor, bo‘ridek kuchli, to‘ng‘izdek qaysar, ayiqday beso‘naqay, ho‘kizdek baquvvat, lochindek, qarg‘adek, arslondek, boyqushday va shunga o‘xhash bir qator so‘zlar orqali keltirib o‘tilgan va bunday o‘xshatishlar hali ham o‘zbek tili leksikasi tarkibida iste’moldadir.

Tilshunos olim Nizomiddin Mahmudov o‘zbek tilida o‘xshatishlarni to‘rt qismga ajratib, ularni o‘xshatish subyekti, o‘xshatish etaloni, o‘xshatish asosi va o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi deb ataydi. U o‘z ilmiy xulosalarida o‘xshatishlarga shunday ta’rif beradi: “Avvalo, ta’kidlash lozimki, o‘xshatishlar o‘ziga xos obrazli tafakkur tarzining maxsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ham ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo‘ladi, nutqning emotsiyal-ekspressivligi, ifodaliligi, ta’sirchanligini ta’minlashga xizmat qiladi. O‘xshatishlarning ikki turi, yani: 1)individual-muallif o‘xshatishlari yoki erkin o‘xshatishlar va 2)umumxalq yoki turg‘un (doimiy) o‘xshatishlar farqlanadi.<sup>1</sup>

Erkin ya’ni individual o‘xshatishlar muallifning o‘ziga xos o‘xshatishlar bo‘lib, bu o‘xshatishlar ijodkorning mahoratini belgilaydi. Biz o‘rganmoqchi bo‘lgan Erkin Vohidov she’riyatida ham bunday unsurlarga ko‘plab misollar uchraydi.

Borliq olam ko‘zimga ming-ming

Go‘zallikka to‘lib ko‘rindi.

Gullar menga oshiq bulbulning

She’r daftari bo‘lib ko‘rindi...<sup>2</sup>

Yuqorida keltirilgan misrada “gullar oshiq bulbulning she’r daftari” bo‘lib ko‘rinishi shoirning erkin o‘xshatishiga misoldir.

Toqi ishkom misli osmon,

Har taraf yulduz sochur,

Voh ajab, bu ne sinoat

Yer uzum, osmon uzum<sup>3</sup>

<sup>1</sup> Н. Маҳмудов, Д. Худойберганова. Ўзбек тилида ўхшатишларнинг изоҳли луғати. – Тошкент : “Маънавият”, 2013, 5 – б.

<sup>2</sup> Еркин Воҳидов. Сайланма. 1-жилд, 25-б.

<sup>3</sup> Еркин Воҳидов. Сайланма. 1-жилд

Yuqorida keltirilgan to‘rtlikda ham o‘xshatishning takrorlanmas namunalarini ko‘rishimiz mumkin. Uzum daraxti tanasi osmonga, mevalarini esa har tarafdan nur sochuvchi yulduzlarga qiyoslamoqda. Aynan bu o‘xshatish erkin o‘xshatishga misol bo‘ladi va o‘zining takrorlanmas jozibasi bilan ajralib turadi.

Turg‘un o‘xshatishlarning o‘ziga xos jihat shundan iboratki, ularda o‘xshatish ifodalangan obraz barqarorlashgan bo‘ladi. Tarixan bunday o‘xshatishlar dastlab biron bir adib tomonidan ishlatilgan bo‘lsa ham, lekin vaqt o‘tishi bilan tilde doimo ko‘chib yuruvchi so‘zlar sifatida turg‘unlashgan bo‘ladi. Milliy tilni tadqiq etishda asosan turg‘un o‘xshatishlar o‘rganiladi, bu esa o‘rganilayotgan milliy tilning o‘ziga xos jihatlarini ochib beradi.

Erkin Vohidov she’rlarida ham turg‘un o‘xshatishlarni uchratishimiz mumkin.

Shoshma, do‘stim, barcha ishing bitadi,

Bitmas ish yo‘q, oshiqmasin yuraging.

Inson umri axir yeldek o‘tadi,

Bosh ko‘tarib atrofingga qaragin.

Erkin Vohidovning “Uchi tuguk dastro‘mol” she’ridan keltirilgan misrada “inson umri yeldek” birikmasi orqali turg‘un o‘xshatish namunasini ko‘ramiz. Inson umri shamolga o‘xhatilishi o‘zbek adabiyotida azaldan uchraydi.

Ul parivash chehrasini

Oyga etgandim qiyos,

Bir umr uzr ayturman

Bu xato timsol uchun.

Shoirning “Hofizga” deb nomlanuvchi she’rida qo‘llanilgan “parivash chehrasini oyga qiyoslash” ham turg‘un o‘xshatishdir. Aynan shu o‘xshatishlar turkiy xalqlar adabiyotida keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Afsona, ertak, doston va badiiy asarlarda uchraydigan qahramonlar vositasida ham turg‘un o‘xshatishlar yuzaga keladi. Masalan o‘zbek millatida yigitlarni tasvirlashda jasur, botir, dovyurak, bir so‘zli kabi ma’nolarni o‘zida mujassam qilgan Rustami Dostondek, Alpomishdek, Farhoddek, Otabekday kabi o‘xshatishlar qo‘llanish odad tusiga kirgan bo‘lsa, qizlarga xos go‘zallik, nafosat, sadoqat, qat’iylik va boshqa shunga o‘xshash bir qator sifatlarni tasvirlashda Oybarchindek, To‘marisdek, Kumushdek kabi o‘xshatishlar qo‘llaniladi.

Ulfatimdir sham yanglig‘

Kechalar tanho qalam,

Men-ku she’r Majnunidirman

Sarvqad Laylo qalam.

Va yana:

Yoshlik – ishq-u oshiqlik mayli,

O‘zi Majnun, ham o‘zi Layli,  
Subhi olam uning tufayli.  
Mayli, unga bitmasam mayli,  
Na bir g‘azal, na bir musaddas,  
Uning o‘zi she’rdan muqaddas.  
Va yana shunga o‘xhash bir misol:  
Yor bilan sayr etmog‘imga  
Hech umidim qolmadi,  
Men o‘zim Majnun kabi  
Aylaymi sahro birla sayr.

Shoirning yuqorida keltirilgan “Qalam”, “Yoshlik”, “Sayr” she’rlaridan keltirilgan to‘rtliklarda ham “Majnun”, “Layli” kabi turg‘un o‘xshatish namunasini ko‘rishimiz mumkin.

Shoir qalbi go‘yo anor,  
She’ri uning sharbati,  
Bo‘lmas ekan she’r ahlining  
O‘z qalbiga shavqati.  
Tinmay ezar, ezar uni  
Ammo shoir biladi –  
Piyolasi to‘lgan kun  
Paymonasi to‘ladi.

Yuqorida keltirilgan “Shoir qalbi” deb nomlanuvchi she’rda shoirning qalbini anorga, she’ri esa uning sharbatiga o‘xshatilishi o‘zbek nasrida takrorlanmasligi bilan ajralib turadi.

Erkin Vohidov xalqona tilda she’rlar bitgan, u she’rlarida qo‘llagan so‘zlar ayttilishi oson, tushunilishi sodda. Shoir ijodini o‘rganishda yillar o‘tgani sayin yangicha qirralari tilshunos va adabiyotshunoslar tomonidan kashf qilinmoqda. Erkin Vohidov she’riyati XX asr oxiri va XXI asr boshlarida o‘zbek adabiyotida o‘zining yangicha yo‘nalishini belgiladi va she’riyat tarixida o‘rnini egalladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Р. Қўнғуров. “Ўзбек тилида тасвирий сўзлар”. Ўзбекистон “Фан” нашрийоти. Т.: 1966
2. Н.Маҳмудов,Д.Худойберганова. Ўзбек тилида ўхшатишларнинг изоҳли луғати. – Тошкент : "Маънавият", 2013
3. Obidjon Karimov. “Metafora – poetik tafakkur asosi”. “Jahon adabiyoti”, 2014-yil 8-sон.
4. Еркин Воҳидов. Сайланма. 1-жилд, Тошкент “Шарқ” нашриёти-2000.
5. Erkin Vohidov, “O‘zbegim”. “Yangi asr avlodi”, 2019